

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

JUMABOYEV G'ULOMJON SHERMATOVICH

**TOSHKENT VOHASI SHAROITIDA ISPAN MINGBOSHI (VACCARIA
HISPANICA (MILL.) RAUSCHERT) BIOEKOLOGIYASI VA
YETISHTIRISH TEKNOLOGIYASI**

**06.03.03 – Dorivor o‘simliklar introduksiyasi, yetishtirish texnologiyasi va
agrofarmekologiyasi**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasи**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor
of philosophy (PhD) on agricultural sciences**

Jumaboyev G‘ulomjon Shermatovich

Toshkent vohasi sharoitida Ispan mingboshi (*Vaccaria hispanica* (Mill.) Rauschert) bioekologiyasi va yetishtirish texnologiyasi 3

Жумабоев Гуломжон Шерматович

Биоэкология и технология выращивания тысячеголовника Испанского (*Vaccaria hispanica* (Mill.) Rauschert) в условиях Ташкентского оазиса..... 21

Jumaboyev Gulomjon Shermatovich

Bioecology and cultivation technology of Cow cockle (*Vaccaria hispanica* (Mill.) Rauschert) in the condition of Tashkent oasis..... 39

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ

List of published works..... 46

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY
DARAJA BERUVCHI DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 RAQAMLI ILMY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

JUMABOYEV G'ULOMJON SHERMATOVICH

**TOSHKENT VOHASI SHAROITIDA ISPLAN MINGBOSHI (VACCARIA
HISPANICA (MILL.) RAUSCHERT) BIOEKOLOGIYASI VA
YETISHTIRISH TEKNOLOGIYASI**

**06.03.03 – Dorivor o’simliklar introduksiyasi, yetishtirish texnologiyasi va
agrofarmekologiyasi**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Qx886 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdaau.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maxkamov Trobjon Xusanboyevich
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Karshiboyev Jaxongir Xazratkulovich
biologiya fanlari doktori, professor

Ruzmetov Umid Ismailovich
qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2023 yil 31 iyul soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00; faks: (+99871) 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz). Toshkent davlat agrar universiteti Ma’muriy binosi, 1-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (549067-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazi binosi. Tel.: (+99871) 260-50-43).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil 19 iyul kuni tarqatildi.
(2023 yil 27 iyundagi 38-raqamli reyestr bayonnomasi).



E.T. Berdiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor

M.Z. Xolmurow

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., dotsent

S.A. Yunusov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Dunyo bo‘yicha Ispan mingboshi – *Vaccaria hispanica* (Mill.) Rauschert ko‘plab mamlakatlarda yetishtirilib, “turli joylarda urug‘ hosili 1328 kg/ga dan 6500 kg/ga miqdorgacha o‘zgarib turishi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan”¹. Ispan mingboshi dunyodagi ko‘plab mamlakatlarda dorivor xomashyo, saponin olish uchun yetishtirib kelinayotgan istiqbolli dorivor o‘simliklar qatoriga kiradi. Dunyoda qimmatbaxo dorivor o‘simliklardan foydalanishda intensifikatsiyaga erishish, ya’ni o‘simlikning barcha qismlaridan ma’lum maqsadlarda foydalanishga ishlab chiqarishda katta ahamiyat berilmoqda.

Hozirgi kunda butun dunyoda ziravorlar, ozuqaviy moddalar va dorivor o‘simliklarga qiziqish ortib borib, *Chamomilla resutitan L.*, *Datura stramoium L.*, *Silybum marianum L.*, *Gaertn.* va *Vaccaria hispanica* (Mill.) Rauschert shifobaxsh maqsadlarda keng qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklar qatoriga kiritilgan. Ushbu yo‘nalishda, o‘simliklarni turli tuproq va iqlim sharoitida o‘sish va rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy asoslash, ya’ni ontogenetik qonuniyatlarini o‘rganish, mavsumiy rivojlanish maromini tadqiq qilish orqali yetishtirishning eng optimal muddatlarini belgilash, ekish materiallarini va ekish masofasini o‘simliklarning o‘sish va rivojlanish jadalligiga va hosil unumiga ta’sirini o‘rganish, introduksion o‘simliklarni ko‘paytirish va yetishtirish usullarini ishlab chiqish hamda introduksion baholash, keng masshtabli plantatsiyalarini tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, jaxonda kundan kunga aholi sonining keskin ortib borishi natijasida dorivor o‘simlikshunoslik va farmatsevtika sanoatida qimmatbaxo xo‘jalik axamiyatiga ega, eksportbop o‘simliklarning floristik ro‘yxatini tuzish, tanlash va xomashyosiga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish zaruriyatları mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bois, o‘simliklarning turli tuproq-iqlim sharoitlaridagi fitokimyoviy tarkibini chuqur tahlil qilish negizida import o‘rnini bosuvchi sifatlari xomashyo olish, yuqori iqtisodiy samarador bo‘lgan o‘simliklar turlarini ko‘paytirish va yetishtirish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizning turli tuproq-iqlim sharoitlarida dorivor o‘simliklarni introduksiya qilish, iqlimlashtirish, ko‘paytirish, yetishtirish va plantatsiyalarini barpo etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Istiqbolli dorivor o‘simlik ispan mingboshi respublikamiz hududi bo‘ylab keng tarqalganligiga qaramasdan uning dorivorlik xususiyatlari, kopaytirish va etishtirishning ilmiy asoslangan usullari ishlab chiqilmagan. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “mamlakatda ishlab chiqariladigan dori-darmon va tibbiyot vositalari ulushini 80% ga yetkazish”² vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda Toshkent vohasi tuproq-iqlim sharoitida Ispan mingboshini xomashyosini yetishtirish yo‘llarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega.

¹ Efthimiadou A., Karkanis A., Bilalis D., Katsenios N. Cultivation of cow cockle (*Vaccaria hispanica* (Mill.) Rauschert): an industrial–medicinal weed // Industrial Crops and Products. – 2012. V. 40. – P. 307-311.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 avgustdagи PQ-4424-son “Respublikada o‘rmonlardan foydalanish samaradorligini oshirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020 yil 10 apreldagi PQ-4670-son “Yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishslash va mavjud resurslardan oqilonan foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020 yil 26 noyabrdagi PQ-4901-son “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishslash, ularning urug‘chilagini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lамини kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022 yil 20 maydagи PQ-251-son “Dorivor o‘simliklarni madaniy xolda yetishtirish va qayta ishslash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil yetish chora-tadbirlari tug‘risida” gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustivor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustivor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganiganlik daroji. *Vaccaria hispanica* (Mill.) Rauschert ning urug‘ unuvchanligiga oid tadqiqotlar xorijlik olimlar G. Mazza va boshqalar (1992), H.S.N. Duddu va S.J. Shirtliffe (2014), E. Ari va boshq. (2014), urug‘ morfologiysi va anatomiyasiga oid tadqiqotlar R.A. Memon va boshq. (2014), M. Koçyiğit va A.L.P. Şevket (2018), etnobotanikasi va etnomeditsinasi bo‘yicha tadqiqotlar U. Cakilcioglu & I. Turkoglu (2010), M. Kumar va boshq. (2011), seleksiyasiga oid tadqiqotlar E. Ari va boshqalar (2022), genetikasi bo‘yicha A.M.R. Ferrie va boshq. (2005), Z.Kernan va A.M.R. Ferrie (2006), fitokimyosi va farmakologik aktivligi bo‘yicha tadqiqotlar G. Zhou va boshq. (2015, 2017), sictematikasi, geografiyasi va ekologiyasi bo‘yicha Vvedenskiy A.I. [10; 351–b.], J. Cullen (1967), H. Niklfeld J.P. Eliáš va boshq. (2005), W. Matuszkiewicz (2005), J. Eliáš (2006), Z.Kropáč (2006), G. Király (2007), E. Szczęśniak (2011), K.Torzewski va boshq. (2018) tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Respublikamiz miqyosida *Vaccaria Wolf* turkumining sictematikasi, geografiyasi va ekologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar “Flora Uzbekistana” (1953) va “Opredelitel rasteniy Sredney Azii” (1971) asarlarida keltirilgan. Biroq, bu ma’lumotlar respublikamiz sharoitida ushbu istiqbolli dorivor va manzarali o‘simlik *Vaccaria hispanica* ni katta masshtabda va keng miqyosda ko‘paytirish, yetishtirishga ilmiy asoslangan xulosalar va tavsiyalar berish imkonini bermaydi. Shu sababli, Respublikamizning turli tuproq-iqlim sharoitlarida, introduktsiya sharoitida ushbu o‘simlikni mavsumiy o‘sishi va rivojlanishi, vegetativ organlarining fitokimyoviy tarkibini qiyosiy tahlili, ko‘paytirish va yetishtirish usullarini ishlab chiqish hamda keng masshtabli plantatsiyalarini tashkil etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy –tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy universitetining №AL 2021090820 “Tabiiy landshaftlardagi invaziv va karantin o‘simliklarning o‘choqlarining raqamli xaritalarini yaratish” (2022-2023) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Toshkent vohasi sharoitida *Vaccaria hispanica* (Mill.) Rauschert ning bioekologik xususiyatlarini yoritib berish va fitokimyoviy tarkibini aniqlash hamda ko‘paytirish va yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Vaccaria hispanica urug‘ining unuvchanligini aniqlash;

Toshkent vohasi sharoitida *Vaccaria hispanica* ning ontogenez bosqichlarini yoritib berish;

Vaccaria hispanica ning mavsumiy rivojlanish maromini kuzatish;

Vaccaria hispanica ni introduktsion baholash;

introduktsiya sharoitida yetishtirilgan *Vaccaria hispanica* urug‘ining anatomik xususiyatlarini tadqiq etish;

introduktsiya sharoitida yetishtirilgan *Vaccaria hispanica* xomashyosini fitokimyoviy tahlil qilish;

Vaccaria hispanica ning urug‘ hosildorligiga ekish meyorlari va muddatlarining ta’sirini aniqlash;

Vaccaria hispanica ni yetishtirishda navbatlab ekishning ahamiyatini yoritish;

Vaccaria hispanica ni yetishtirish agrotexnikasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob’ekti. *Vaccaria hispanica* (Mill.) Rauschert – Ispan mingboshi, ispan qoramug‘i Caryophyllaceae Juss. oilasiga mansub bir yillik o‘simlik hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. Introduktsiya, o‘sish, mavsumiy rivojlanish maromi, morfologiyasi, anatomiysi, fitokimyosi, ko‘paytirish va yetishtirish usullari.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada dala tadqiqot, fenologik, morfometrik, anatomiq, fitokimyoviy, statistik usullaridan, *Vaccaria hispanica* ni introduktsion baholash uchun B.Y. Tuxtayevning (2009) 100 balli shkalasidan, *Vaccaria hispanica* ning mavsumiy rivojlanish maromini o‘rganishda I.N. Baydeman (1974) va G.N. Zaysev (1973) usullaridan foydalangan, bunda vegetativ va generativ davrlar qayd etilgan, vegetativ davrida o‘sishning boshlanishi, faol o‘sishi, barglarning paydo bo‘lishi, o‘lchami va to‘kilishi, ildizpoyaning paydo bo‘lishi, o‘lchami va soni kuzatib borilgan, generativ davrida g‘unchaning xosil bo‘lishi, gullashi, kunlik gullah dinamikasi, mavsumiy gullah dinamikasi, gullah davri, meva xosil qilishi, mevasining tuzilishi, meva pishishi kuzatib borilgan, dala tajriba variantlarni B.A. Dospexovning «Dala tajribasi metodologiyasi» (1979) asari asosida olib borilgan, urug‘ini to‘qima va hujayralarini K. Ezau (1969) uslubi bo‘yicha tavsiflangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor *Vaccaria hispanica* urug‘ unuvchanligining saqlash muddatiga bog‘liqligi aniqlanib bunda xaroratning 22-25°C –ga yetishi bilan 2-yil saqlangan urug‘larning unuvchanligi ham 100%-ni tashkil etganligi aniqlangan;

Toshkent vohasi sharoitida *Vaccaria hispanica* (Mill.) Rauschert ning ontogenez qonuniyatları asosida rivojlanish biologiyasi yoritilib, virginil bosqichida

3 davrini (maysa, yuvenil, immatur), generativ bosqichining 3 davrini (g‘unchalash, gullah va mevalash) tavsiflash imkonini bergen;

Vaccaria hispanica ning mavsumiy rivojlanish maromini kuzatilgan va O‘zbekiston sharoitida vegetatsiya davomiyligi 92-105 kunni tashkil etishi aniqlangan;

Vaccaria hispanica Toshkent vohasi sharoitida introduksion baholangan va yetishtirish uchun istiqbolli tur deb belgilangan;

Toshkent vohasi sharoitida etishtirilgan *Vaccaria hispanica* urug‘ining anatomik tuzilishining tahlili asosida urug‘ning yumaloq parenxima hujayralarining tarkibida saponin va efir moylari aniqlangan va diagnostik belgilar ajratilgan;

Vaccaria hispanica ning urug‘ining fitokimyoviy tarkibi flanavoidlar, yog‘, uglevodlar miqdori va aminokislotalar tarkibi aniqlangan bo‘lib, 19 xildagi aminokislotalar mavjudligi aniqlangan;

Vaccaria hispanica ning ekish muddati bo‘yicha olib borilgan tajribalarda o‘rta muddatda, yani mart oyining birinchi dekadasida ekilgan urug‘lar eng yuqori ko‘rsatgichni namoyon etib, urug‘ hosildorligi 2450 kg/ga ni tashkil etishi aniqlangan;

urug‘ ekish meyori bo‘yicha tajribalarda gektariga 6,75 kg urug‘ ekish maqbul hisoblanib, barcha variantlarda ushbu meyor eng yuqori ko‘rsatgichni namoyon etgani aniqlangan;

navbatlab ekish bo‘yicha tajribalarda avval madaniy ekin ekilgan maydonda o‘simlikning o‘sishi, rivojlanishi va xosildorligi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarni namoyon etib, o‘simlikning bo‘yi $58,4 \pm 1,3$ sm, mevalar soni $68 \pm 2,4$ donani, urug‘ xomashyo miqdori 2450 kg/ga ni tashkil etishi aniqlangan;

Toshkent vohasi sharoitida *Vaccaria hispanica* ni yetishtirish agrotexnikasini ilmiy asoslangan uslubi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Vaccaria hispanica ni respublikamiz sharoitida bioekologik xususiyatlarini aniqlash asosida ko‘paytirish va yetishtirishning ilmiy asoslangan usullari ishlab chiqilgan;

Respublikamiz sharoitida yetishtirilgan *Vaccaria hispanica* ni xomashyosi xisoblangan urug‘ining fitokimyoviy tarkibini tahlil qilish asosida import o‘rnini bosuvchi sifatli xomashyo olish mumkinligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy usullarning qo‘llanilganligi va ular asosida olingan natijalarni xalqaro bazalar bilan qiyosiy solishtirilganligi, ilmiy yondashuvlar asosida olingan nazariy ma’lumotlar va amaliy natijalarning bir-biriga mosligi, natijalarning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilk bor *Vaccaria hispanica* ning Toshkent vohasi sharoitida bioekologik xususiyatlarini tadqiq etilganligi, o‘simlikning xomashyosi urug‘ining fitokimyoviy tarkibini aniqlanganligi, ko‘paytirish va yetishtirish usullarini ilmiy asoslangan usullari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalarni respublikamiz turli

tuproq va iqlim sharoitida dorivor o'simliklarni yetishtirishga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalarda va qishloq xo'jaligi tizimida keng mashtabli plantatsiyalarini tashkil etish, farmatsevtika sanoati uchun zarur xomashyo bilan ta'minlanishiga xizmat qilishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. *Vaccaria hispanica* ning Toshkent vohasi sharoitida bioekologik xususiyatlarini va yetishtirish texnologiyasini tadbiq qilishda olingan ilmiy natijalar asosida:

Ispan mingboshi o'simligini etishtirish texnologiyasi Saksonota davlat o'rmon ishlab chiqarish korxonasi hududida 0,25 ga maydonda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasining 2022 yil 28 oktyabrdagi 04/21-4983-sun ma'lumotnomasi). Natijada poya xom-ashyosidan 72%, urug' xom-ashyosidan 78% daromad olishga erishilgan. Dissertatsiya tadqiqotlarini joriy etish orqali Ispan mingboshini yetishtirishning ilmiy asoslangan usuli ishlab chiqilib, yetishtirishdan keladigan daromad 1,75 barobarga oshirilgan.

Quyichirchiq ixtisoslashgan davlat o'rmon xo'jaligi hududida Ispan mingboshi o'simligini etishtirish texnologiyasi 0,10 ga maydonda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasining 2022 yil 28 oktyabrdagi 04/21-4983-sun ma'lumotnomasi). Natijada poya xom-ashyosidan 65%, urug' xom-ashyosidan 78% daromad olishga erishilgan. Dissertatsiya tadqiqotlarini joriy etish orqali Ispan mingboshini yetishtirishning ilmiy asoslangan usuli ishlab chiqilib, yetishtirishdan keladigan daromad 1,8 barobarga oshirilgan;

Tadqiqot natijalari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika instituti huzuridagi F.N. Rusanov nomidagi Botanika bog'i hududida Dorivor va manzarali o't o'simliklar introduktsiyasi laboratoriysi tajriba maydonida joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2022-yil 25-oktyabrdagi № 4/1255-2684-sun ma'lumotnomasi). Natijada Dorivor o'simliklar kolleksiyasi fondi dorivor va manzarali o'simlik bilan boyitilgan. Shu bilan birga dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10-apreldagi PQ-4670-sun Qarori ijrosini ta'minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, besh bob, xulosa, ishlab chiqarishga tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsyaning hajmi 112 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbliji, zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti, tadqiqot uslublari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga mosligi

ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingen natjalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyatga joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar va aprobatasiysi, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "*Vaccaria hispanica* ning o'r ganilish tarixi, introduksiya sharoitida tavsifi va xo'jalikdagi ahamiyati" deb nomlangan birinchi bobo ilgari olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning tahlili, turning introduktsiya sharoitida tavsifi va xo'jalikdagi ahamiyatini adabiyotlar tahlili asosida yoritib berishga bag'ishlangan.

Bobning "*Vaccaria hispanica* bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar" deb nomlangan birinchi bo'limida *Vaccaria* turkumi turlariga oid amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar to'g'risidagi ma'lumotlar yoritib berilgan. Dunyo miqyosida *Vaccaria hispanica* (Mill.) Rauschert ning urug' unuvchanligiga oid tadqiqotlar xorijlik olimlar G. Mazza va boshqalar (1992), H.S.N. Duddu va S.J. Shirtliffe (2014), E. Ari va boshq. (2014), urug' morfologiyasi va anatomiyasiga oid tadqiqotlar Kanwal va boshq. (2012), R.A. Memon va boshq. (2014), M. Koçyigit va A.L.P. Şevket (2018), etnobotanikasi va etnomeditsinasiga bo'yicha tadqiqotlar U. Cakilcioglu & I. Turkoglu (2010), M. Kumar va boshq. (2011), seleksiyasiga oid tadqiqotlar E. Ari va boshqalar (2022), genetikasi bo'yicha A.M.R. Ferrie va boshq. (2005), Z.Kernan va A.M.R. Ferrie (2006), fitokimyosi va farmakologik aktivligi bo'yicha tadqiqotlar G. Zhou va boshq. (2015, 2017), Yasmin va boshq. (2009), Ahmad va boshq. (2010), Ari va boshq. (2014), sistematikasi, geografiyasi va ekologiyasi bo'yicha G. Király (2007), E. Szczęśniak (2011), K.Torzewski va boshq. (2018), manzaraalilik xususiyatlari bo'yicha Brickell (2001), Tepe (2014), Duddu & Shirtliffe (2014), ekin sifatida etishtirish bo'yicha Efthimiadu va boshq. (2012) tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Respublikamiz hududida *Vaccaria Wolf* turkumining sistematikasi, geografiyasi va ekologiyasi bo'yicha tadqiqotlar "Flora Uzbekistana" (1953) va "Opredelitel rasteniy Sredney Azii" (1971) nomli nodir asarlarda keltirilgan.

Birinchi bohnibg "*Vaccaria hispanica* ning introduksiya sharoitida botanik tavsifi" deb nomlangan ikkinchi bo'limida *Vaccaria hispanica* turining introduktsiya sharoitlaridagi morfologik tavsifi keltirilgan. *Vaccaria hispanica* Chinniguldoshlar (Caryophyllaceae) oilasiga mansub bir yillik o't o'simlik. Poyasi tuklanmagan, mutloq yalang'och, tikka, odatda o'rtasidan shoxlangan, 20-60 sm balandlikda (Введенский, 1953). Barglari ko'kimtir-yashil, cho'zinchoqtuxumsimon, cho'zinchoq, yoki cho'zinchoq-lansetsimon, asosidan deyarli yuraksimon, o'tkir. Guloldi barglari lansetsimon, o'ta o'tkir, yupqa pylonka bilan chegaralangan. Ostki barg qo'ltig'idagi gullari 4-6 sm uzunlikda. Gulkosachabarg cho'zinchoq bo'lib, uchqirrali, o'tkir tishchalari mayjud, 12-13 mm uzunlikda, meva solish oldidan 15 mm uzunlikda, naychasidan 5 karrak kichik. Gultojibarglari pushti, teskari tuxumsimon, tishli plastinkali, besh a'zoli, 15-16 mm uzunlikda. Adabiyotlarda ispan mingboshi introduksiya sharoitida quyidagicha ta'riflangan: *V. hispanica* — bo'yi 70 sm gacha bo'lgan bir yillik o't o'simlik, poyasi tik, nayzasimon-tuxumsimon yaltiroq yaproqli (Pokistonning Kashmir tumanida — Memon va boshq., 2013), beshta tojibargdan tashkil topgan ajoyib gullari tarqoq dihazial boshqlarda joylashgan (Cullen, 1967), urug'lari shakli va o'lchami

bo'yicha rapsga o'hshash (Mazza va boshq., 1992), va yuqori ildiz tizimiga ega (Fletcher, 1897; Duddu va boshq., 2015). To'pgullari keng shoxlangan va ko'p gulli (Cullen, 1967). Gullar asosan pushti rangga ega va aprel-iyul oylarida gullaydi. Ko'sagi keng-cho'zinchoq, gulkosabargdan kalta. Urug'i qora, to'q-jigarrang, sharsimon, mayda qavariqsimon. Biliaderis va boshqalar (1993) *V. hispanica* ni quyidagicha tariflashgan: poyasi tik, silliq, shoxlangan, tugunlari shishgan. O'simlik balandligi 30 dan 90 sm gacha uzunligi 2-8 sm bo'lgan o'simta barglari bilan. *V. hispanica* diametri, shakli va rangi bo'yicha raps (*Brassica napus L.*) ga o'xshash, taxminan 2,0 dan 2,5 mm gacha bo'lgan dumaloq, qora urug'larga ega.

Mazkur bobning «***Vaccaria hispanica* dan tibbiyotda va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida foydalanish» deb nomlangan uchinchi bo'limi *Vaccaria hispanica* dan tibbiyotda va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida foydalanishni yoritishga va tahliliga bag'ishlangan. *Vaccaria hispanica* urug'lari Xitoyda galaktagog ta'siri va hayz davrining buzilishi uchun farmakopeyada taxminan 2000 yil davomida qayd etilgan, shuningdek, odamlarda qon aylanishini tezlashtirishi bilan mashhur (Jiang va boshq., 2013). U ayollarda ko'z charchoqlari belgilari, shingillalarni davolash (Zhang, Liu, Diao, 2012) va prostatani davolashda (Huo, 2009) ishlatilgan. Bundan tashqari, u manzarali o'simlik sifatida muqobil qishloq xo'jaliqi mahsuloti bo'lishi mumkin (Mazza va boshq., 1992; Weiss, 2002; Waiganjo, 2008). Turkiyada o'simlikning ildizlari diaforetik sifatida ishlatilganligi aniqlangan (Cakilcioglu & Turkoglu, 2010). Shuningdek, neyrobiologik faoliyat Orxan va boshqalar (2016) tomonidan baholangan.**

Dissertatsiyaning “**Tajriba olib borilgan hududning iqlim va tuproq sharoitlari, tadqiqot ob'ekti va metodlari**” deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar olib borilgan hududning iqlim va tuproq sharoitlari, yog'ingarchilik miqdori, havo harorati, havoning nisbiy namligi, tuproq harorati va uning tarkibi hamda tadqiqot ob'ekti va metodlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Vaccaria hispanica ni Toshkent vohasi tuproq-iqlim sharoitida ko'paytirish va yetishtirish uchun ilmiy tadqiqot tajribalari 2020-2022 yillarda Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi axborot maslahat markazi “EXTENSION CENTER” hududida olib borildi.

Tadqiqotning ob'ekti *Caryophyllaceae* Juss oilasiga mansub *Vaccaria hispanica* (Mill.) Rauschert–Ispan mingboshi, ispan qoramug'i hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. *Vaccaria hispanica* va uning plantatsiyasi

Dissertatsiyaning “*Vaccaria hispanica* ning introduksiya sharoitida bioekologik xususiyatlari” deb nomlangan uchinchi bobi *Vaccaria hispanica* urug‘ining unuvchanligi, o‘simlikning introduktsiya sharoitida ontogenezi, mavsumiy rivojlanish maromi va introduksion baholashga bag‘ishlangan.

Mazkur bobning «*Vaccaria hispanica* urug‘ining unuvchanligi» deb nomlangan birinchi bo‘limida *Vaccaria hispanica* urug‘ining unuvchanligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqotlar 2022 yil yanvar-mart oylarida “De Nova Agro” MCHJ laboratoriyasida olib borildi. 1000 dona urug‘ining og‘irligi 4,25 gr. Urug‘lari mayda, qora yoki to‘q jigarrang tusli, qavariq, yumaloq shaklli. Bir yillik va ikki yillik urug‘lar 2022 yil 25 yanvar kuni laboratoriya sharoitida unuvchanligini aniqlash uchun 15 °C va 22 °C xaroratda aniqlandi (2-rasm, 1-jadval).



2-rasm. *Vaccaria hispanica* urug‘larini unish jarayoni

1-jadval
Saqlash muddatlari va xarorati urug‘ unuvchanligiga ta’siri

№	Urug‘larni saqlash muddati	Harorat, %	
		15°C	22°C
1	Bir yillik	76,7	100
2	Ikki yillik	66,7	100

Vaccaria hispanica urug‘larini unuvchanligi saqlash qoidalariga rioya qilingan taqdirda 3 yilgacha unuvchanligini umuman yo‘qotmasligi ma’lum bo‘ldi. Haroratni o‘simlikning urug‘ini unuvchanligiga ta’siri bo‘yicha olingan natijalar ochiq gruntu xavo harorati 17-22°C ni tashkil etganda ijobjiy natijalar olish mumkinligini namoyon etadi.

Mazkur bobning “*Vaccaria hispanica* ning ontogenez bosqichlari” deb nomlangan ikkinchi bo‘limi *Vaccaria hispanica* ning ontogenez bosqichlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ochiq yerga ekilgan *Vaccaria hispanica* (Mill.) Rauschert ning o’sishi va rivojlanishining tahlili virginil davrining 3 bosqichini (maysa, yuvenil, immatur), generativ davrining 3 bosqichni (g‘unchalash, gullah va mevalash) tavsiflash imkonini berdi. Subsenil va senil bosqichlar ajratilmadi hamda alohida tavsiflanmadi.

Virginil davri. Maysa bosqichi (plantules). Maysalarning holati urug‘pallabarglar paydo bo‘lgan paytdan boshlab ular nobud bo‘lgunga qadar yoki haqiqiy barglarning birinchi jufti paydo bo‘lguncha aniqlanadi. Ispan mingboshining maysa bosqichi urug‘ ekilganidan 10 kun o‘tib kuzatilib, uning tuplarida quyidagi

rivojlanish jarayoni qayd etildi: birlamchi ildizning o'sishi – gipokotil o'sishi – urug‘pallabarglarning paydo bo‘lishi - urug‘pallabarglarning ochilishi – urug‘pallabarglarning o'sishi – kurtakcha o'sishining boshlanishi – haqiqiy barglarning birinchi juftining ochilishi va o'sishi – epikotilning yoki poyaning dastlabki bo‘ginining paydo bo‘lishi.

Yuvenil bosqich (juvenile plants). Ushbu bosqich ikkinchi juft barglar xosil bo‘lgandan to shoxlangungacha bo‘lgan davrgacha davom etadi. Bu yosh holatida epikotil o'sishi, 3, 4 va undan keyingi haqiqiy barglarning ketma-ket namayon bo‘lishi va o'sishi, urug‘palla barglarining o'sishdan to‘xtashi, rangining o'zgarishi qurishi, qurishi va to‘kilishi sodir bo‘ldi. Yuvenil (voyaga etmagan) o'simliklar monopodial (bir eksenli) o‘sadigan kurtaklarga ega, ildiz tizimi asosiy va lateral ildizlardan iborat (3-rasm).



3-rasm. Yuvenil bosqichida o'simlikning ko'rinishi: А-Б – 10 кунлик, С-Д – 20 кунлик, Е – 30 кунлик.

Eksenel ildiz saqlanib qoladi, rivojlanadi va 4-5-tartibga qadar lateral ildizlar sonining ko'payishi ham kuzatiladi. Yuvunel bosqichining dastlabki kunlarida yosh nixollarning o'sishi juda sekinlik bilan amalga oshadi. Bu xol bizningcha epikotil va asosiy poya o'smasdan faqat barglarni chiqarish xolati namoyon bo‘lgani bilan izoxlanadi. Chinbarglar poyada qarama-qarshi xolatda joylashgan bo‘lib, asta sekin xajmi kattalasha boshladi. Shu bilan birga epikotilda ham qisman o'sishni kuzatish mumkin. Ya’ni urug‘pallabarg bilan chinbarg orasidagi poya – epikotil xosil bo‘ldi. Epikotil o‘ta qisqargan poya bo‘lib, dastlab bo‘yi 2-3 mm va keyinchalik 4-5 mm ni tashkil etdi.

Chinbarglar cho‘zinchoq lansetsimon shaklda bo‘lib, o'simlik tuplarda turlicha muddat o‘sdi, ya’ni 3-5 kun oralig‘ida navbatdagi barglar paydo bo‘lguncha o'sishda davom etdi. Chinbarglarning o‘lchamlari o'simlik turli tuplarda xar hil bo‘lib, ularning uzunligi 1,2-2,0 sm ni tashkil etdi. Navbatdagi barglar bilan asosiy poya ham shakllanadi va turli tuplarda ularning uzunligi 2,7-3,5 sm ni, eni 2,2-3,1 mm atrofida qayd etildi.

Yuvenil bosqichida o'simlikning balandligi va poyaning diametri turli tuplarda turlicha bo‘lib, eng baland tup 42 sm, eng yo‘g‘on poyaning diametri 1,2 sm, eng past tupning bo‘yi 16 sm, eng ingichka poyaning diametri 2,0 mm ni tashkil etdi.

Immatur bosqich. Bu bosqich tuplarning shoxlanishi bilan kuzatilib, va nixollarning yuvinil bosqichidan voyaga yetgan vegetativ o'simliklarga o'tish bosqichi hisoblanadi. Tanlab olingan obyektda Immatur bosqich 8-10-juft

barglarning paydo bo‘lishI va poyasining yuqori o‘sish nuqtasidan shoxlanish jarayoning boshlashi bilan belgilanib, o‘simlik tuplarida vegetatsiyasining 51-63 kunlarigacha davom etadi.

Shoxlanish jarayoni o‘simliklarda dastlab apikal tarzda amalga oshadi va 4-5-juft barglar qo‘ltig‘igacha (bazal) shohlanish davom etadi. Rivojlanishning bu bosqichida o‘simliklarning umumiy balandligi va poyaning diametri turli tuplarda turlicha bo‘lib, eng baland tup 48, eng yo‘g‘on poyaning diametri 1,2 sm, eng past tupning bo‘yi 18 sm, eng ingichka poyaning diametri 2,0 mm poya balandligi -18-48 sm eni esa 1,2-2,0 sm atrofida qayd etildi. O‘simlik balandligi va poya diametri o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rtacha ijobiy va korrelyatsiya koeffitsienti $r = 0,93$ ni tashkil etdi ($p < 0,05$).

Ayni paytda bu bosqichda asosiy o‘q ildiz o‘sishida o‘zgarish sezilmasada, ammo 3-4-tartibli yon ildizlar sonining miqdoran xamda ko‘payishi kuzatildi. Demak, bu davrda asosiy va yon ildizlarning qalinlashishi va yon ildizlarning sonining ko‘payishi aniqlandi. Asosiy ildizning uzunligi turli tuplarda 4-8 sm ni va yon ildizlarining uzunligi 0,7-2,1 sm ni tashkil etdi.

Generativ davr. Bu davr tuplarning g‘unchalashidan boshlanadi va mevalarning yetilishi, pishishi bosqichi bilan yakunlanadi.


O‘rganilgan ob‘ektning generativ davri 3 bosqichni o‘z ichiga oladi: g‘unchalash (G1), gullash (G2) va mevalash (G3). O‘simlikning shoxlangan poyasining uchki o‘sish nuqtasidan g‘unchalarning namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi. To‘pgullar yuqoridan pastga qarab, pastki juft barglar qo‘ltig‘idan birin ketin xosil bo‘la boshladи. To‘pgullarning xosil bo‘lishi 8-10 juft barglardan to 4-5-juft barglargacha davom etdi. Mevasi uzunligi 8-9 mm, eni 5-6 mm bo‘lgan ko‘p urug‘li ko‘sak meva, tuxumsimon, tubi ikki urug‘murtakli, ochiladigan to‘rt tishli. O‘simliklarda generativ davrining tugash iyun oyining o‘rtalariga to‘g‘ri kelib, ayni paytda havo harorati $35-38^{\circ}\text{C}$ va nisbiy namligi esa 13-15% atraofida qayd etildi.

Ispan mingboshining urug‘ mahsuldorligini aniqlash ishlari 30 dona o‘simlik tuplarida kuzatildi. Kuzatuv ishlarida 30 dona o‘simlikdagi g‘unchalar soni va urug‘chi tugunchasidagi urug‘kurtaklar – potentsial urug‘ mahsuldorligi (PUM) hisoblandi. Shu bilan birga, real urug‘ mahsuldorligi (RUM) hamda urug‘ mahsuldorligi koeffitsienti (Mk) mevalar soni va undagi urug‘lar soni bo‘yicha aniqlandi.

Toshkent vohasi sharoitida 2020 yilda *V. hispanica* ning tupida PUM 1224 (68 dona guncha), RUM 1062 (59 dona meva), mahsuldorlik koeffitsienti (Mk) esa 87% ni tashkil etdi. 2021 yilda PUM 868 (62 dona guncha), RUM 714 (51 dona meva), mahsuldorlik koeffitsienti (Mk) esa 82,3% ni tashkil etdi. 2022 yilda PUM 944 (59 dona guncha), RUM 800 (50 dona meva), mahsuldorlik koeffitsienti (Mk) esa 84,7% ni tashkil etdi.

O‘simlikning bo‘yi va poyaning diametri turli tuplarda turlicha bo‘lib, eng baland tup 63 sm, eng yo‘g‘on poyaning diametri 1,3 sm, eng past tupning bo‘yi 18 sm, eng ingichka poyaning diametri 2,0 mm ni tashkil etdi. O‘simlik balandligi va poya diametri o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rtacha ijobiy va korrelyatsiya koeffitsienti $r = 0,96$ ($p < 0,05$) ni tashkil etdi.

Mazkur bobning “*Vaccaria hispanica* ning mavsumiy rivojlanish maromi” deb nomlangan uchinchi bo‘limi mavsumiy rivojlanish maromini yoritishga bag‘ishlangan. O‘simlikning yer ustki qismlarining jadal o‘sishi iqlim va tuproq sharoitlariga bog’liq bo‘lib, 2020-2021 yillarda maysa davridan yuvenil davriga o‘tish davri 7-10 kunni, 2022 yilda esa bu davr nisbatan uzoq muddat, ya’ni 17 kunni tashkil etdi. Bunga asosiy sababni 2022 yilning 18-24 mart kunlari havo haroratini o‘rtacha 6°C ga tushishi bilan izohlash mumkin. O‘simlikning yer ustki qismlarining jadal o‘sishi 2020–2022 yillar mobaynida aprel-may oylariga to‘g‘ri keldi (4-rasm).



4-rasm. *Vaccaria hispanica* ning fenospektri (2020–2022 yillar)


Xususan 2020-2021 yillar mobaynida immatur bosqichga vegetatsiyasining 50-57 kunlari kirgan bo‘lsa, 2022 yilda esa 58-64 kunlari o‘tib, qiyosiy xolda avvalgi yillardan uzoqroq muddatni namoyon etdi. Generativ davrga o‘tishda ham 2022 yilda ekilgan o‘simliklarda avvalgi 2021 yillarga qaraganda 4-5 kunga kech qolish kuzatildi. Ammo yalpi mevalash jarayoni barcha yillarda deyarli bir-hil vaqt, yani 74-76 kunni tashkil etdi. O‘simlikda mevalarini yetilish davri ham shunga muvofiq deyarli bir hil muddatda namoyon bo‘ldi. Ispan mingboshining vegetatsiya davri davomiyligi 2020 yilda 92, 2021 yilda 101 kunni, 2022 yilda 105 kunni tashkil etdi.

Mazkur bobning so‘ngi bo‘limi *Vaccaria hispanica* ni introduksion baholashga bag‘ishlangan. *Vaccaria hispanica* ning yuqori haroratga munosabati, yani chidamliligi 15 ballni (chidamli), past haroratga munosabati (ortach chidamli) 10 ballni, sug‘orishga bo‘lgan talabi (o‘rtacha) 10 ballni, tabiiy xolda ko‘payish (o‘rtacha) 15 ballni, begona o‘tlarga chidamliligi (chidamli) 15 ballni, kasallik va zararkunandalar bilan zararlanishi (o‘rtacha) 10 ballni tashkil etdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, *Vaccaria hispanica* introduksiya sharoitida o‘sishi va rivojlanishi, morfologik ko‘rsatkichlari, hosildorligi, kasallik va zararkunandalarga chidamliligi, introduksiya sharoitiga yaxshi moslasha olganligi bo‘yicha jami 85 ball bilan baholandi va O‘zbekistonda ko‘paytirish mumkin bo‘lgan (istiqbolli) o‘simlik ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning “*Vaccaria hispanica* ning urug‘ xomashyosini anatomiysi va fitokimiyoviy tahlili” deb nomlangan to‘rtinchi bobo o‘simlikning introduksiya sharoitida ontogenezi va mavsumiy rivojlanish maromini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Ushbu bobning birinchi bo‘limi “**Introduksiya sharoitida yetishtirilgan *Vaccaria hispanica* urug‘ining anatomik xususiyatlari**” deb nomlangan. Urug‘ining ko‘ndalang kesimida urug‘ shakli dumaloq, tashqi tarafdan urug‘ po‘sti bilan qoplangan (5-rasm).



